




ILM-FAN MUAMMOLARI TADQIQOTCHILAR TALQINIDA

ILM | TA'LIM | INNOVATSIYA | MAKTAB
YANGI O'ZBEKISTON | BUYUK KELAJAK
UCHINCHI RENESSANS



ANIQ
FANLAR



TABIY
FANLAR



TIBBIYOT
FANLARI



TEXNIKA
FANLARI



IJTIMOYIY-GUMANITAR
FANLAR



PEDAGOGIKA
VA PSIXOLOGIYA

KONFERENSIYA QATNASHCHILARI:

- ✓ TALABALAR
- ✓ MAGISTRANTLAR
- ✓ DOKTORANTLAR
- ✓ YOSH OLIMLAR
- ✓ O'QITUVCHILAR

KONFERENSIYA YO'NALISHLARI:

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Psixologiya fanlari

UCHINCHI RENESSANS



OPEN ACCESS



@TALQINVATADQIQOTLAR



Ushbu ilmiy konferensiya “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tegishli qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar ijrosini ta’minlash, talabalar, magistrantlar, doktorantlar va yosh olimlarning ilmiy tadqiqot natijalarini keng yoritish maqsadida “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali tahririyati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1540-sonli Guvohnoma, ISSN 2181-3035, talqinvatadqiqotlar.uz veb-sayti) tomonidan tashkil etib boriladi.




“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida”

mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi

MATERIALLARI TO‘PLAMI

10-iyun, 2026-yil



Google Scholar



ADVANCED SCIENCE INDEX



CYBERLENINKA



® digital object identifier

**“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi
respublika ilmiy konferensiyasi
tahrir kengashi:**

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich

Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)

Djo‘rayev Mabruk Ma‘murjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Zokirov Sanjar Ikromjon o‘g‘li

*Farg‘ona politexnika institutining “Intellectual muhandislik tizimlari” kafedrasi katta
o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

Farg‘ona davlat universiteti mevalilik va sabzavotchilik kafedrasi mudiri

q.x.f.f.d (PhD)

Berdieva Lobar Norqobulovna

Qashqadaryo viloyat Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish

Milliy Markazi “Pedagogika, psixologiya va ta‘lim texnologiyalari”

kafedrasi o‘qituvchisi

Xamraqulov Serobjon Soliyevich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna

Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Djumanioyozova Enajon Kutimovna

Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi

XIII-XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA MADANIY JARAYONLAR VA ISLOM DINI TARAQQIYOTI

Ibragimova Gulzoda Farxadovna

Urganch Innovation Universiteti tarix fani o'qituvchisi

Maqolaning qisqacha mazmuni: Xorazm vohasida XIII – XV asrlar davri madaniy hayot, ilm-fan rivoji va shaharsozlik an'analari tarixi va umuman Qo'ng'iro't So'fiylari davrida Xorazmda kechgan madaniy jarayonlar kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining kamligidan kelib chiqadi. Xususan, bu asrlarda Xorazmda ilm – fan va adabiyot taraqqiyoti masalasi yozma manbalarda ancha sust aks etgan bo'lib, shu jihatdan tarixshunoslik nuqtai – nazaridan ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. SHu jihatdan olganda, Xorazm vohasining XIII – XV asrlar davri madaniy hayot taraqqiyoti hamda ilm-fan rivoji masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanib, mazkur maqola shu mavzuga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Qo'ng'iro't so'fiylari, Qutlug' Temur, Ibn Battuta, zoviyalar, so'fiylik, kubraviya, al-Kardariy, Husayn Xorazmiy, Rabg'uziy.

Аннотация: История культурной жизни, научного развития и градостроительных традиций в Хорезмском оазисе в XIII-XV веках, и в целом культурные процессы, происходившие в Хорезме во время правления кунгиратских суфиев, является одной из наименее изученных тем, что объясняется недостатком письменных источников и данных археологических исследований. В частности, вопрос развития науки и литературы в Хорезме в эти века довольно слабо отражен в письменных источниках, и в этом отношении он не изучался как отдельная тема с точки зрения историографии. В связи с этим вопрос развития культурной жизни и научного развития в Хорезмском оазисе в XIII-XV веках считается одной из актуальных проблем, и данной статьей посвящена именно эта тема.

Ключевые слова: Кунгират суфии, Кутлуг Темур, Ибн Баттута, Завийя, суфизм, Кубравия, аль-Кардари, Хусейн аль-Хорезми, Рабгузи.

Annotation: The history of cultural life, scientific development and urban planning traditions in the Khorezm oasis in the 13th-15th centuries, and in general, the cultural processes that took place in Khorezm during the reign of the Kungirat Sufis, is one of the least studied topics, which is due to the lack of written sources and archaeological research data. In particular, the issue of the development of science and literature in Khorezm in these centuries is reflected rather poorly in written sources, and in this regard, it has not been studied as a separate topic from the point of view of historiography. In this regard, the issue of the development of cultural life and scientific development in the Khorezm oasis in the 13th-15th centuries is considered one of the urgent problems, and this article is devoted to this topic.

Keywords: Kungirat Sufis, Kutlug Temur, Ibn Battuta, Zawiyya, Sufism, Kubrawiyya, al-Kardari, Husayn Al-Khwarizmi, Rabguzi.

KIRISH (INTRODUCTION). Mo'g'ullar istilosi Xorazm madaniy taraqqiyotiga ko'p vaqt ta'sir qilmagan. Aksincha, ko'p vaqt o'tmasdan Xorazm Oltin O'rda davlatining nafaqat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti balki, madaniy hayoti rivojiga beqiyos hissa qo'shgan hudud bo'lgan hamda Oltin O'rda davlatidagi shaharlar taraqqiyotida ham Xorazm shaharsozlik an'alarining o'rni beqiyos bo'lgan. XIII-XIV asrlarda Xorazmda ma'naviy hayotda qadimdan shakllangan an'alar va tarixiy tajribalar keyinchalik Oltin O'rdaning ma'naviy yuksalishida ham kata rol o'ynadi, oxir – oqibat islom dinining davlat dini darajasiga ko'tarilishida Xorazmning o'rni yuksak darajada bo'lganligi ilmiy jihatdan to'liq asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Xorazm vohasida XIII – XV asrlar davri madaniy hayot, ilm-fan rivoji va shaharsozlik an'analari tarixi va umuman Qo'ng'iro't So'fiylari davrida Xorazmda kechgan madaniy jarayonlar kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, bu yozma manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlarining kamligidan kelib chiqadi.

Xususan, bu asrlarda Xorazmda ilm – fan va adabiyot taraqqiyoti masalasi yozma manbalarda ancha sust aks etgan bo'lib, shu jihatdan tarixshunoslik nuqtai – nazaridan ham alohida mavzu sifatida o'rganilmagan. Jumladan, bu davr madaniy jarayonlar haqida Ibn Battuta ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. 1333 yilda Xorazmga markazlashgan arab sayyohi Ibn Battuta kelgan. Uning “Tuhfat an-nuzzar fi g'aroyib al-amsar va ajoyib al-afsar” (“G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar tomoshasi haqida tuhfa”) asarida Xorazm vohasida madaniy jarayonlarga oid ma'lumotlar keltirib o'tgan.[1].

Mo'g'ul bosqinidan keyingi Xorazm to'g'risida, Xorazmning XIII-XIV asrlarda umum Yevroosiyo savdosida tutgan o'rni, shu davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Oltin O'rda davlati iqtisodiy-madaniy hayotida tutgan o'rni mavzusini yoritishda ayniqsa qoraqalpoq arxeologi va tarixchi olimi M.SH.Qdirniyozovning xizmatlari katta. U bu mavzuga oid ko'plagan monografiya va maqolalar muallifidir. U yana Xorazmning Xorazmning XIII-XIV asrlarda Buyuk Ipak yo'li savdosida tutgan o'rni ancha salmoqli bo'lganligini yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar yordamida isbotlab berdi [2, B.92-101].

Xorazm vohasida diniy jarayonlar va Oltin O'rda davlatining islomlashuvida vohaning o'rni masalasi Devin De Vize tadqiqotlarida o'z aksini topgan [4, B.54-55].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Xorazmning mo'g'ullar hukmronligi davridagi madaniy-ma'naviy hayotida islom an'analari yetakchi edi. Ibn Battuta Xorazmda bir qator ulamolarning mu'taziliy ekanligiga ishora qilgan bo'lsa-da, lekin Oltin O'rda xoni O'zbekxon va Xorazm voliysi Qutlug' Temurning sunniy mazhabiga e'tiqod qiluvchi taqvodor musulmon hukmdori sifatida, Gurganj aholisini ham sunniy ekanligini ta'kidlab o'tgan. U o'z safari davomida mavlono Humomiddin, mavlono Zayniddin al-Muqaddasiy, mavlono Rizouddin Yahyo, mavlono Fazlulloh ar-Rizaviy, mavlono Jaloliddin al-Imodiy, Xorazm

voliysining imomi mavlono SHamsiddin as-Sinjoriy kabi bir qator xorazmlik taniqli ulamolar bilan suhbatlashganini yozib o'tgan .

Eng muhimi, o'z vaqtida Xorazmdagi ilm-fan va ma'naviy hayot rivojida muhim o'rin egallagan Zamaxshariy va Najmiddin Kubro qabrlari yonida zoviyalar qurilganidir va mazkur joylar mo'tabar ziyoratgoh bo'lganini Ibn Battuta alohida e'tibor bilan ta'kidlaydi.

“Xorazm (Gurganj shahri) dan chiqaverishda bir zoviya bor. Uni eng buyuk avliyolardan bo'lmish Najmiddin al-Kubro qabri uzra bunyod etishgan. Bu yerda ziyoratchilar uchun taom tayyorlanadi. Xorazm (Gurganj)ning obruli kishilaridan bo'lmish mudarris Sayfiddin ibn Asaba zoviyada shayxlik qiladi. Beriroqda yana bir zoviya o'rinlashgan. Uning shayxi - eng buyuk sufiylardan biri, taqvodor mujovir (zohid) Jaloliddin as-Samarqandiydir. U bizni uyida mehmon qildi. SHahardan tashqarida alloma imom Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning mozori bo'lib, uning ustida maqbara qurilgan. Zamaxshar – Xorazm (Gurganj)dan to'rt mil naridagi bir qishloqdir” [1, B.60].

Ibn Battuta keltirgan Xorazm masjidлари haqidagi ma'lumotlar u yerda islom qoidalariga qattiq amal qilinganini ko'rsatadi. Bu haqda u shunday yozadi:

“Ular namozni shunday tartibga rioya qilib o'qiydilarki, buni boshqa hech qaerda ko'rmaganman. Odat shundayki, har bir muazzin o'z masjidi yonida o'rinlashgan uylarni aylanib chiqib, namoz vaqti bo'lganligidan xabardor etadi. Kimki namozi umumda ishtirok etmasa, imom ularni jamoa huzurida jazolaydi. Buning uchun har bir masjidda qamchin osig'liq turadi. Undan tashqari bundaylarga besh dinor miqdorida jarima solinadi, u masjid foydasiga va kambag'al-qashshoqlarni boqish uchun sarflanadi. Aytishlaricha bu odat qadim zamonlardan buyon mavjud ekan” [1, B.58].

Ikki asr davomida Oltin O'rda tasarrufida bo'lgan Xorazmning savdo-hunarmandchilik markazlari SHarqiy Yevropa hududlari bilan qizg'in savdo-sotiq munosabatlari olib bordilar. Xorazmliklar bulg'orlar, eronliklar, kavkazliklar va ruslar bilan birgalikda Oltin O'rdaning shaharlari qurilishida faol qatnashgan bo'lsalar, ikkinchi tarafdin, xorazmlik hunarmandlar xonlikning Saroy Botu, Saroy

Berka, Mojar va Hojitarxon kabi shaharlarida kulolchilik maktablarining shakllanishida muhim rol o'ynadilar [2, B.95-97]. O'z navbatida xorazmlik ustalar ham Oltin O'rda tarkibiga kiruvchi xalqlar kulolchilik san'atining ba'zi tomonlarini o'zlashtirib olganlar. Oltin O'rda shaharlarida turli- tuman urug'-qabila va xalqlar vakillarning to'planishi hunarmandchilik ishlab chiqarishi yuksalishiga ijobiy ta'sir qilgan.

Orolbo'yi, jumladan, Xorazmning Oltin O'rda tarkibiga qo'shilishi islomlashuvning kuchayishiga, etnik tarkibi xilma-xil bo'lgan katta geografik hududda hanafiy dini ilohiyotining tarqalishi va rivojlanishiga yana bir turtki bo'ldi. Bu jarayonda ilohiyotshunoslar alohida o'rin tutdilar. Ayniqsa, quyi Volgabo'yi va Janubiy Sibir hududlarida islomning tarqalishida olimlar orasida “Mafatih ul-aqfal fi sharx ul-faroid ul-usmoniya” asari muallifi Rashid ad-din Ismoil ibn Mahmud ibn Muhammad al-Kardariyni alohida ta'kidlashadi [3, B.229-230]. “Kardariy”ning nisbasidan ko'rinib turibdiki, u Orolbo'yi Kardar viloyatidan kelib chiqqan.

Xorazm vohasidan bundan tashqari, Oltin O'rda faqihi Muhammad ibn Shihob al-Kardariy (XIV asr) bo'lib, u xorazmlik Sayyid Jaloliddin ibn Shams ad-din al-Gurlaniyning shogirdi edi.

Muhammad ibn Shihob yana bir xorazmlik Hofiz ad-din Muhammad ibn Muhammad ibn Shihob al-Xorazmiy il-Kardariyning tarbiyachisi bo'ldi, u Ibn al-Bazzoziy nomi bilan mashhur (vaf. 1424). O'z navbatida, Hofiz ad-din al-Kardariy Oltin O'rdada, ayniqsa, Qrim va Volga mintaqasida hanafiy mazhabining tarqalishida katta rol o'ynagan yana bir mashhur ilohiyot olimi Siroj ad-din al-Hojji-Tarxoniya dars bergan [3, B.229-230].

A.Mo'minov O'rta Osiyo va Xorazmdan kelgan ko'plab ilohiyot olimlari, jumladan, musulmon fiqhining rivojlanishida katta rol o'ynagan olimlarning nomlarini keltiradi. Xususan, Jobir ibn Muhammad al-Kati al-Xorazmiy (vaf. 1340) Qohirada dars bergan [4, B.54-55].

Shams al-Aimma al-Kardariyning ustozi Nuraddin Ahmad ibn Mahmud ibn Abu Bakr as-Sabuniy (vaf. 1184), musulmon fiqhi asoslariga oid “al-bidoya fi usul ad-

din” asarining muallifi edi. U Qalobod (Buxoro) shahridagi “Yetti qozi” qabristoniga dafn etilgan [3, B.229-230].

Professor A. Mo‘minov Kardariyning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri ilohiyot olimi Hofiz ad-Din Bazzoziy (to‘liq ismi Hofiz ad-Din Muhammad b. Muhammad b. Shihob al-Kardariy al-Bazzoziy), keyinchalik al-Xorazmiy va al. - Hanafiy XV asrning 1-choragining mashhur huquqshunoslaridan biri, fiqhga oid bir qancha yirik asarlar muallifi. Qolaversa, u so‘fiy yetakchilaridan biri Kubroviyya Husayn Xorazmiyning shogirdi bo‘lganligi ham ma’lum. Al-Bazzoziy al-Kardariy Qrim va Saroy orqali yetib kelgan Anadoluda vafot etdi va “tez orada Rumning eng nufuzli ilohiyotshunoslaridan biriga aylandi. Al-Kardariy al-Bazzoziy siyosiy hayotda va Hoji Tarxonda faol ishtirok etgan. ...Uning ko‘chirilishiga Amir Temur (1377-1405)ning Xorazmga qilgan yurishlari va, ehtimol, 1388-yilda Urganchning vayron bo‘lishi sabab bo‘lgan... Hofiziddin Bazzoziy faoliyati Xorazm bilan cho‘l o‘rtasidagi yaqin aloqalarning yana bir dalili bo‘lib, shuningdek, Xorazm jamoasining Saroydagi muhim rolini ham yaqqol ko‘rsatadi” [4, B.54-55].

Bular Xorazmning islom dinining nafaqat Orolbo‘yida, balki uning chegaralaridan ancha tashqarida ham tarqalishi va kuchayishidagi muhim rolini yana bir bor ko‘rsatadi. Qolaversa, mahalliy ilohiyot va fiqh maktabining shakllanishi haqida gapirish mumkin, bu esa, o‘z navbatida, islom dini mahalliy xalqlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida mustahkam o‘rin egallaganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Yuqoridagilardan umumiy xulosa chiqaradigan bo‘lsak, Xorazm Oltin O‘rda davlatining nafaqat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti balki, madaniy hayoti rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan hudud bo‘lgan hamda Oltin O‘rda davlatidagi shaharlar taraqqiyotida ham Xorazm shaharsozlik an‘analarining o‘rni beqiyos bo‘lgan. XIII-XIV asrlarda Xorazmda ma‘naviy hayotda qadimdan shakllangan an‘analar va tarixiy tajribalar keyinchalik Oltin O‘rdaning ma‘naviy yuksalishida ham katta rol o‘ynadi, oxir – oqibat islom dinining davlat dini darajasiga ko‘tarilishida Xorazmning o‘rni yuksak darajada bo‘lganligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. -Т., «Шарқ баёзи», 1993. – 104 б.
2. Кдырнийазов М.-Ш. Культурные связи средневековых городов Хорезма // Археология Приаралья, Вып. –Т.: «Фан», с. 92-101.
3. Муминов А.К. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии / под редакцией. С.М.Прозорова. – Алматы: Қазақ энциклопедиясы, 2015. – 400 с.
4. Devin De Vis. Husayn Xorazmiy: 15- asr boshidagi oʻrta osiyolik soʻfiy . (ingliz tilidan tarjimasi) // Tasavvuf tarixidan. – Toshkent: Fan, 1991. – B.54-55 .

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ART-PEDAGOGIKA TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK TAVSIFI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI AHAMIYATI Komolova Iroda Xamidullayevna	4
2.	SCIENTIFIC AND PRACTICAL RESEARCH ON 3D PRINTING TECHNOLOGIES: TECHNOLOGICAL AND BENEFICIAL ASSESSMENT Karimov Shukhrat Gayratovich Tashpulatov Javokhir Abdulla ogli Daniyarov Berdax Talibaeovich Markarimov Sokhibjon Turdalievich	12
3.	XX ASR 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRga TASHQI MUHOJIRLARNING KO'CHIRIB KELTIRILISHI VA UNING DEMOGRAFIK OQIBATLARI Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li	17
4.	IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA URUSH NOGIRONLARINI KASBIY REABILITATSIYA QILISH VA MEHNAT BILAN TA'MINLASH TAJRIBASI Alimov Obidjon Sultanmurod o'g'li	22
5.	IQTISODIY KO'RSATKICHLAR: MOHIYATI, TIZIMLI TASNIFI VA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI Bozorov Muhammad Obloqul o'g'li	26
6.	JANUBIY XITOIY DENGIZIDAGI HUDUDIY MUAMMOLARNING YECHISH ISTIQBOLLARI Kazakbayev Hikmatilla Ismatullayevich	30
7.	INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA OMBUDSMAN INSTITUTINING O'RNI Nabiyev Muhridin Baxtiyor o'g'li	35
8.	FUQAROLARNING QULAY ATROF-MUHITGA EGA BO'LISH HUQUQINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA MUSTAHLKAMLANISHI VA UNING AHAMIYATI Nabiyev Muhridin Baxtiyor o'g'li	38
9.	THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES Saparbayeva Charosxon Islam qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	41
10.	IQTISODIYOTDA MATEMATIK MODELLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT Muhiddinova Gulzoda Shukur qizi	44
11.	NEFT VA GAZNI BURG'ULASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN BURG'ULASH ERITMASINING AHAMIYATI U. X. Asranova	48
12.	CONTRASTIVE ANALYSIS, ERROR ANALYSIS AND INTERLANGUAGE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION Axmedova Maftuna Alisher qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	51
13.	INDIVIDUAL DIFFERENCES IN SECOND LANGUAGE LEARNING Ataxanova Madina Azad qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	55
14.	TEACHING STRESS: WORD STRESS Kadirova Khurshida Bakhadirovna Xamroyeva Mardonaxon Umidjon qizi	59
15.	WAYS OF DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING	62

	Rajapova Zilola Baxramjon qizi Kadirova Khurshida Bakhadirovna	
16.	O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SOHASIDA EKOLOGIK STRATEGIYALARNI AMALGA OSHIRISH HOLATI VA HUQUQIY ASOSLARI D.K.Xakimdjano	
	Xajiyeva Sevinch Mardonbek qizi	65
17.	BERUNIY MEROSI ASOSIDA STEM-INTEGRATSIYALASHGAN METODIKANING KOMPONENTLAR BO‘YICHA SAMARADORLIGI Aliyeva Xurshida Shuxrat qizi	70
18.	QISHLOQ XO‘JALIGIDA AQILLI SUG‘ORISH TIZIMINI TATBIQ ETISH Xurramov Ro‘ziboy Jo‘ra o‘g‘li	74
19.	QRIM MA‘RIFATPARVARLIK HARAKATI TARIXINING O‘RGANILISH BOSQICHLARI VA TARIXSHUNOSLIKDAGI TALQINI Berdiyeva Muattar Ibodullayevna Nazarova Zulayho Azimboy qizi	78
20.	SHAXS BORLIG‘I INQIROZI VA APATIYA FENOMENI: SABAB, OQIBAT VA KONSEPTUAL-FALSAFIY YECHIMLAR Mannobova Munisa O‘ktamjon qizi Ikramova I.R.	83
21.	EKOSHAHARLAR BARPO ETISH — BARQAROR URBANIZATSIYA VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI YASHILLASHTIRISHNING BOSH POYDEVORIDIR Xusainov Oybek Djabbarovich	87
22.	O‘ZBEKISTONDA QONUN CHOLG‘USI IJROCHILIGI MASALALARI Temurbek Jumanazarov	91
23.	INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA YO‘NALISHLARI VA ULARNI BAHOLASH MEZONLARI Boboyeva Gulchiroy Murotovna	97
24.	TIBBIY OTMLARDA PEDIATRIYA TA‘LIMINING INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLARI Normatov Jasur Javli o‘g‘li	101
25.	ГЕЙМИФИКАЦИЯ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Наркабилова Гулноза Пулатовна	108
26.	ФОРМИРОВАНИЕ УНИВЕРСАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ Наркабилова Гулноза Пулатовна	114
27.	UD CHOLG‘USINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA AN‘ANAVIY IJROCHILIKDAGI O‘RNI Iskandarov Shukurullo Ne‘matullo o‘g‘li	119
28.	LISTENING IN THE WORLD AND IN LANGUAGE LEARNING Iskandarov Farrukh Yodgor o‘g‘li Karimbayev Islom Oybek o‘g‘li	122
29.	QISHLOQ XO‘JALIGIDA KO‘CHMA SUG‘ORISH TIZIMINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI Xurramov Ro‘ziboy Jo‘ra o‘g‘li	126
30.	ELEMENTAR MATEMATIK MASALALARNI YECHISHDA DINAMIK SISTEMALARNI QO‘LLASH Mamatov Jurabek Saydullayevich Jo‘raqulova Rayhona Muzaffarovna	130
31.	TIBBIY USKUNALARINING BUZILISH XAVFINI BAHOLASH ASOSIDA PROFILAKTIK XIZMAT KO‘RSATISH INTERVALLARINI	135

	OPTIMALLASHTIRISH	
	O.E. Jiyanbayev	
32.	BIOLOGICALLY ACTIVE SUBSTANCES AND THEIR ROLE IN RATIONAL NUTRITION	
	D.B.Aknazarova	
	S.O.Sattorova	140
33.	TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR	
	Masharipova Xadicha Javlon qizi	147
34.	ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОЛЛЕКТОРА ДЛЯ ОТОПЛЕНИЯ ЗДАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОТХОДНЫХ БАНОК	
	Пирназаров Илхом Исламович	
	Иброхимова Замира Исмат кизи	151
35.	KORXONADA SIYOSIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH	
	MODELLARI	
	Qo'ldosheva Dilnavoz Baxodir qizi	154
36.	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IRODAVIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	
	Abdimova Iroda Botirboyevna	
	Sultonova Laylo Usmonali qizi	157
37.	XIII-XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA MADANIY JARAYONLAR VA ISLOM DINI TARAQQIYOTI	
	Ibragimova Gulzoda Farxadovna	161
38.	XV- XVI ASR BOSHLARIDA XORAZMDA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLAR	
	Ibragimova Gulzoda Farxadovna	168
39.	МЕКТЕПКЕ SHEKEMGI BILIMLENDIRIW MÁKEMELERINDE HÁREKETLI OYINLAR ÓTKERIW USÍLLARÍ	
	Nurullaev Alpamis Jumabaevich	
	Áwezimbetov Tilewbergen Allambergenovich	174
40.	AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISHDA TIBBIY VA EKOLOGIK OMILLARNING O'RNI	
	Ermetova Z.T.	
	Atadjanova R.R.	178
41.	ДИЛОРОМ САЙДАМИНОВА: ДИАЛОГ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ И СОВРЕМЕННОСТИ	
	Касимова Умидахон Шерзодовна	183
42.	YOSHLARDA O'Z-O'ZIGA BO'LGAN ISHONCHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	
	Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna	187
43.	YOSHLARDAGI IJODKORLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	
	Mirzaxmatova Sayyora Saydaxmatovna	190
44.	O'ZBEK AYOLLAR SHE'RIYATIDA MUHABBAT VA NAFRAT ANTITEZASI: SANOBAR MEHMON IJODI MISOLIDA	
	Erkaboyeva Mohidil Madaminjon qizi	193
45.	TALABA-QIZLARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA QIZIQTIRISH	
	MEXANIZMLARI	
	Usmanova Shohzoda Mamarasul qizi	
	Uktamov Muhammadamin Ramzi o'g'li	198
46.	O'ZBEKISTONDA 5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALAR O'RTASIDA KAM OVQATLANISHNING GIGIYENIK ASOSLARI VA UNING OLDINI OLISH	
	Karimova Sayyora Bahodirovna	
	Matyoqubov Doston Bazarboyevich	202

47.	ORTIQCHA VAZN VA SEMIZLIK KASALLIGINING OLDINI OLISH CHORALARI Raximova Xurshida Salayevna Matyoqubov Doston Bazarbayevich	205
48.	MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA UMURTQA POG'ONASI QIYSHAYISHINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI Jumaniyozov Alisher Abdusharipovich Kurbaniyazova Oltinoy Maxmud qizi	208
49.	BOLALAR KIYIMLARIGA QO'YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR Raximova Xurshida Salayevna	211
50.	MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA O'QUV XONALARINING YORITILGANLIK DARAJASI VA UNING GIGIYENIK AHAMIYATI Jumaniyozov Alisher Abdusharipovich Kurbaniyazova Oltinoy Maxmud qizi	215
51.	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY SHAKLLANGANLIK DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI Jurayeva Nigora Abdusalom qizi	218
52.	BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING REFLEKSIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI Jurayeva Nigora Abdusalom qizi	222
53.	FURTHER INVESTIGATION INTO ENGLISH PRAGMALINGUISTIC TERMS Sabirova Bernara Umarjanovna	226
54.	ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN CHINA: PRINCIPLES AND STRATEGIES Rasulova Nadira Bakhadirovna	234
55.	BO'LAJAK PEDAGOGLARDA RAQAMLI IJODKORLIKNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK JIHATLARI Berdiyeva Nilufar Berdiyev qizi	238
56.	SCAPHOLEBERIS MUCRONATA (MÜLLER, 1776) TURINING KO'PAYISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI Madumarova Saodatxon Orifovna	246
57.	ONLAYN TA'LIMDA IQTISODIY TERMINLARNI O'ZLASHTIRISH SAMARADORLIGI Barno Djamalutdinova Ramizitdinovna	249
58.	FORMATIV BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ORQALI O'QUVCHILAR FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH (IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR MISOLIDA) Sarvara Islamova	153

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Mas’ul muharrir

I.I.Abdumannonov

Nashrga tayyorlovchi

R.I.Abdullayev

“Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami, 10-iyun, 2026-yil. – Farg‘ona: talqinvatatqiqotla.uz – 264 bet.